

## DEMOGRAFIK HOLAT (2020- yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumot)

Jizzax viloyatida doimiy aholi soni 2021- yil 1- yanvar holatiga 1410,6 ming kishini tashkil etib, 2020- yil boshidan 28,5 ming kishiga yoki 102,1 % ga o'sdi.


**2021- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholisi soni  
1410,6 ming kishi.**



## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi (2021- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi )

	2019- yil	2020- yil	o'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	1382,1	1410,6	102,1
Jizzax sh.	177,4	180,7	101,9
Arnasoy	45,9	46,6	101,5
Baxmal	155,9	159,3	102,2
G'allaorol	171,4	175,0	102,1
Sh. Rashidov	220,4	226,1	102,6
Do'stlik	65,4	66,5	101,7
Zomin	163,6	166,9	102,0
Zarbdor	85,9	88,2	102,7
Mirzacho'l	51,6	52,7	102,1
Zafarobod	49,8	50,5	101,4
Paxtakor	74,3	75,7	101,9
Forish	92,4	93,8	101,5
Yangiobod	28,1	28,6	101,8

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1- yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Sh. Rashidov tumanida 226,1 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 16,0 % ni) va Jizzax shahrida 180,7 ming kishini (12,8 %), aksincha eng kam aholi soni Arnasoy 46,6 ming kishi (3,3 %) va Yangiobod tumanida 28,6 ming kishini (2,0 %) tashkil etdi.

## TUG‘ILISH

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 38,0 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 27,2 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega ko‘paygan (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 26,7 promille bo‘lgan)

## Ma’lumot uchun

Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindikpulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.



Tug‘ilish koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan Jizzax shahar (22,5 promilledan 24,1 promillega) va Baxmal tumanida (30,5 promilledan 31,1 promillega) sezilarli o‘sgan bo‘lib, aksincha sezilarli kamayish Sh. Rashidov tumanida (29,4 promilledan 29,2 promillega) va Zomin tumanida (29,5 promilledan 28,9 promillega) kuzatildi.

## Jizzax viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (2020- yil yanvar-dekabr)

	2019- yil	2020- yil	o'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	36457	38035	104,3
Jizzax sh.	3963	4325	109,1
Arnasoy	1048	1055	100,7
Baxmal	4707	4897	104,0
G'allaorol	4761	5104	107,2
Sh. Rashidov	6382	6522	102,2
Do'stlik	1537	1525	99,2
Zomin	4772	4777	100,1
Zarbdor	2452	2644	107,8
Mirzacho'l	1046	1101	105,3
Zafarobod	1153	1250	108,4
Paxtakor	1816	1864	102,6
Forish	2179	2250	103,3
Yangiobod	641	721	112,5

## TUG‘ILGANLAR SONI

2020- yil yanvar-dekabr



**Qiz bola:**  
**18,1 ming**  
**kishi**

**O‘g‘il bola:**  
**19,9 ming**  
**kishi**



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 38,0 mingta tug‘ilganlar qayd etilgan bo‘lib, shundan o‘g‘il bolalar 52,4 %, qiz bolalar 47,6 % ni tashkil etadi.


## TUG‘ILGANLAR SONI YILLAR KESIMIDA



## VAFOT ETGANLAR

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 6,0 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega ko‘paydi (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 4.0 promille bo‘lgan).

O‘lim koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Do‘stlik (3,7 promilledan 3,3 promillega), Mirzacho‘l (3,5 promilledan 3,0 promillega) tumanlarida kuzatildi.




## Jizzax viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi (2020-yil yanvar-dekabr)

	2019- yil	2020- yil	o'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	5519	6020	109,1
Jizzax sh.	658	856	130,1
Arnasoy	138	141	102,2
Baxmal	717	706	98,5
G'allaorol	743	811	109,2
Sh. Rashidov	929	1006	108,3
Do'stlik	241	220	91,3
Zomin	655	713	108,9
Zarbdor	306	367	119,9
Mirzacho'l	178	158	88,8
Zafarobod	166	195	117,5
Paxtakor	296	314	106,1
Forish	363	404	111,3
Yangiobod	129	129	100,0

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 52,9 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,9 % i o‘simtalardan, 6,4 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,5 % i ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 8,6 % i nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 5,4 % i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 13,3 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.


### Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o‘sishi 32,0 ming kishini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 1,1 ming kishiga (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 30,9 ming kishi bo‘lgan) ko‘paygan.

Ro‘yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 324 nafarni tashkil etib, ularning 50,6 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 32,1 % i nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 5,6 % i tug‘ma anomaliyalardan, 1,5 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,4 % i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 0,6 % i ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan va 6,2 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### 1 yoshgacha vafot etgan bolalarning asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 1 yoshgacha vafot etgan bolalar 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 8,6 promilleni tashkil etdi, 2019- yilning mos davriga nisbatan minus 2,8 promillega kamaydi (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 11,4 promille bo‘lgan).

**100,7 %**

13,9 ming birlik

### NIKOH

O'tgan yilga nisbatan foizda



**99,0 %**


1,1 ming birlik

### AJRIM


O'tgan yilga nisbatan foizda




**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti  
(2020- yil yanvar-dekabr, ming birlik)**



## Jizzax viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar o'sish sur'ati, foizda (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan)



## Jizzax viloyati bo'yicha nikohdan ajralishlar o'sish sur'ati, foizda (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan)



## MIGRATSIYA

2020- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 7,6 ming kishini, ko‘chib ketganlar soni esa 11,1 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 3,5 ming kishi bo‘lib, 2019-yilning mos davrida minus 1,3 ming kishi bo‘lgan.



Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Baxmal tumanida (minus 0,8 ming kishi) G‘allaorol va Zomin tumanida (minus 0,7 ming kishi).

(ming kishida)

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr
Ko‘chib kelganlar	10,3	7,6
Ko‘chib ketganlar	11,6	11,1
Migratsiya saldosi	-1,3	-3,5

*Viloyat statistika boshqarmasi*  
*"Demografiya va mehnat*  
*statistikasi bo‘limi"*  
**(72) 221-51-19**  
**(72) 222-81-39**